Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o‘g‘li
Sattarov Farhod Islomovich
Namangan davlat pedagogika instituti

IJODIY ASAR YARATISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10866393

Annotatsiya: Ushbu maqolada manzara janri va uning o‘zig xos jihatlari, ochiq havoda etyut ishlash haqida so‘z boradi. Manzara ishlashning qonuniyatlari, ishlash bosqichlarining ketma-ketligi taxlil qilingan. Manzara ishlashda rang munosabatlari rassomlar asarlari taxlili, hamda Shundan kelib chiqqan xolda yangi rangtasvir kompozitsiyalari uchun ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: obraz, motiv, individual, estetik, koloritda, kontrast, tonal, prizmasi, seans, kompozitsiya, perspektiva, plan

Manzara janrida ishlashni ko‘pincha oddiygina ommabop ish deb hisoblaydilar, rassomdan kuchli malaka talab etmaydigan ish deb noto‘g‘ri fikrlaydilar. Vaholanki, aslida manzara rangtasvirida chuqur obrazli ko‘rinish yaratish bu oson emas, va rassomga u chuqur ijodiy qoniqish xosil qiluvchi hissi yot beruvchi. Manzara kompozitsiyasi ustida ishlash eng qiziqarli e’tibor tortuvchi motiv tanlashdan boshlanadi. Bu ma’noda esa eng avvalo etyudlar bajarishda yoki manzara materiali ustida ishlagandi asosiy vazifalarni belgilab olish ham muhimdir.

So‘zsiz etyud yozish manzara kartinasi ustida ishlashga nisbatan albatta yengilroqdir. Biroq etyudga nisbatan ham ancha jiddiy munosabatda bo‘lib, tevarak atrof-muhit haqida tasavvurlarini kengaytirish va uni kasbiy mahoratni oshirish mukammallashtirish vositasi sifatida qarash kerak.

Mashhur manzarachi rassomlarning ijodi bizni yangi motivlari bilan o‘ziga tortadi. Unda tomoshabin ustaning shaxsini aksini ilg‘ab oladi, uning individual (pocherki) chizgisi, bu bilan u o‘zini xissiyoti, kayfiyati estetik g‘alayonlarning, tabiatning ta’sirida go‘zallik ta’sirida.

Mashhur manzarachi rassomlarni barcha jihatlarini o‘zlashtirish ularga to‘liq bog‘lanib qolish, taqlid qilish, begona kompozitsiyalarga suyanib qolish yaramaydi.

Tabiatdagi go‘zallikni ko‘ra bilish ko‘nikmasi, yangilikni idrok etish bizning davrimizga xos xarakterni topish ko‘plab rassomlar ijodida ko‘rish mumkin.

Ayrim yosh rassomlar kompozitsiyadagi chiziqli yechimni o‘rnini to‘liq baho bermaydilar, ular asosiy narsa rangtasvirda bu kolorni deb hisoblaydilar. Bu noto‘g‘ri. Manzara rangtasvirda teppa teng chiziqli yechim, rangtasvir va kompozitsiya zarur hisoblanadi.

Naturadagi eng qiziqarli motiv topib olingandan so‘nggina kompozitsion izlanishlar boshlanadi. Etyudni o‘lchami formati aniqlanadi.

Odatda tajribali rassomlar tayyorlab olingan formatdagi xolatda ishlash vazifasini qo‘yadilar. Bu xolatda chizuvchining atrofida bor bo‘lgan tabiat ko‘rinishi motivini joylashtirishga to‘g‘ri keladi.

Boshqa rassomlar esa fikriy g‘oyaviy izlanishlar olib boradi, tabiatni kuzatar ekan, ko‘rish nuqtasini o‘zgartiradi. Bunda ramka-kuzatkichdan foydalaniladi. Undan zaruruy (gorizontal, vertikal yoki yaqin kvadratga) format topishga yordam beruvchidir. Shunga qarab material asos (xolet, qog‘oz yoki karton), odatda bu etyudga chiqishdan avval tayyorlab olinadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, yordam vositalarisiz ham, ko‘z chamasi bilan zaruriy manzara qismini tanlab olish mumkin.

Etyud ishlash jarayonida tanlangan motivning kompozitsiyasi, uning tonal va kolorit yechimi, naturadan chizilgan tasvir bilan taqqoslaniladi va bu holda ayrim kamchiliklar chiziqli tasvirda, koloritda, kontrast va tongdagi kuchi, qaysiki oxirida manzaraning ifodaviyligi xal qiladi.

Manzara kartina yaratish mo‘ljallanar ekan naturadan chizish bilan rangtasvirchining kuzatganlari va ta’ssurotlari aks etadi. Ko‘p manzarachilar shunday ishlaydilar. Ba’zi bir rassomlargina ularga ma’lum bo‘lgan xayoliy ta’surotlar bilan rang bilan ishlaydilar.

Naturadan ishlash kartina ustida xiyla og‘ir jaryon hisoblanadi, bajarilgan etyud esa kartina uchun yordamchi material bo‘lib xizmat qiladi.

Kartina ustida ishlash jarayonida kartinaning chiziqli yechimi, tus va rangdagi eskiz bajariladi. Rassom yana va takror naturaga murojaat etadi, unda qo‘shimcha tabiatning obrazliligini boyituvchi xarakterli shtrixlar topadi.

Zamonaviy manzarada esa insonning faoliyatini natijalarini ifodalash mumkin. Qaysiki kompozitsiyaga odam tasvirlarini (figurasini) kiritish bilan manzara kartina kompozitsiyasi ustida ishlash shu darajagacha davom etadiki, qaysiki chiziqli kompozitsiya naturan olingan etyud yoki xomaki rasm asosida tusli va rangli yechimini topgunga qadar. Bu holda tugal holda shunday aniq vazifalar bajariladiki, qaysiki xarholda qisman bo‘lsada birinchi kompozitsion eskizlarda echib borilgandagi asoslanib.

Bu bilan faol holda, barcha asosli materiallar kompozitsiyaga va chiziqli rasmga va rangli qurilishiga tuziladi..

Ish jarayonida albatta kontrvallar va yaxlitlik qonunini amal qilinishini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Alohida unutmaslik kerakki, tus va rang kontrastlari, shakl va o‘lcham va boshqa elementlardagi kontrastlarni ham tasviriy motivga kiruvchi.

Kartina ustida ishni tugallash bosqichida rassom alohida vazifalarni bajarishga ya’ni qiziqib ketishi mumkinki, alohida detallarni tus va tonal munosabatlarni berishda bu esa kompozitsiyani ko‘pol va quruq bo‘lib qolishiga kayfiyatni o‘zgarib ketishiga olib keladi.

Shu bois kompozitsiyaga yaxlitlik qonuni prizmasi orqali qarash va kompozitsiyaning bo‘laklarga ajralib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Manzara chizish jarayonida manzara ishlash texnikasini egallash biz yoshlardan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan obektlarni katta masofa ajratib turishi, yoruqlik va soya reflekslarining xilma-xilligi va ko‘pligi, yoruq-soyalarning tez o‘zgaruvchanligi, ob-qavo va fasllarning o‘zgarishi bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo‘lgan rassom meqnatini qiyinlashtiradi.

Ochiq xavoda rasm chizganda boshlanishida oddiyroq syujetni tanlagan ma’qulroq. Masalan, hovlini bir qismi, uy yonidagi yoki devor oldidagi daraxt, ko‘prikli ariqcha, xarakterliroq ko‘chani bir qismi, darvoza oldi va hokazo. Ochiq xavoda etyud ishlash bo‘yicha bir mo‘ljal malaka xosil qilgach, so‘ng vazifasini sekin-asta murakkablashtirib borish mumkin.

Odatda manzara ishlashning ikki xil tipi mavjud:



Birinchisi: davomli ya’ni tugatilgan manzara



Ikkinchisi: qisqa muddatli etyudlar





Uzoq muddatli manzaralar ishlashda fazoni ishonchli tasvirlash obu-xavoni xolati, yorug‘likning nozik qochirimlari va ob’ektlarni shakli-shamoyili ancha aniqlikda ishlanadi va manabu manzara bunga misol b o‘la oladi. Uzoq muddatli davomli etyudlarda naturaning to‘liq ifodalash qobiliyati va dastlabki fikrni to‘la-to‘kis rangtasvir asariga aylantira olish tarbiyalanadi. Uzoq muddatli ishlarni bir necha seansda kunning (bir payti) o‘sha payti va o‘sha vaqtida havoning o‘sha payti o‘sha vaqtida, o‘sha bir xil xolatida yozish kerak.

Yaxlitlikni rivojlantirish va rangtasvirni quruq va kambag‘al bo‘lib qolishdan qutulish uchun davomli tasvirlardan tashqari qisqa muddatli etyudlar bajarish zarur bo‘ladi. Bu etyudlar manzarachi uchun o‘ta zaruriy bosqich bo‘lib, rassomning o‘ziga xos kundalik daftaridir. etyuddagi eng ahamiyatli narsa bu natura haqida jonli nigoh va jonli tasavvurdir.

Ochiq xavoda ishlanar ekan, tabiatning tez o‘zgaruvchanligini kuzatish mumkin: bo‘ronli bulut va momaqaldiroq, quyoshning chiqishi, bulutlarning hayratli almashinishlari va rangdor yoritilishini kuzatish mumkin. Bunday o‘zgarishlar 5-10 minut ichidayoq butunlay o‘zgaradi: kun botish butunlay boshqa rangga kiradi, bulutlarni ham shakli buzilib ketadi. Bunday paytda juda tez ishlash talab etiladi, boshlang‘ich chizmatasvirni to‘liq bajarish ham shart emas yoki umumiy holda kist bilan belgilab olish kifoya qiladi. So‘ngra tezda zaruriy tusdagi buyoqlarni tanlab yirik mazeklar bilan ishlash kerak. Qisqa vaqt ichida umumiy rang tusini xolatini hosil qilish ranglar garmoniyasini, planli bog‘lanishlarni yuzaga chiqarish zarur bo‘ladi.

Bu erda albatta yaxlit ko‘rish zarur va asosiy ob’ektlarni taqqoslash matoda asosiy rang munosabatlarni joylashtirib olish: osmon, er, daraxtlar, suv va hokazo. Agarki,

umumiy tus ishonchli olinsa, yorug‘lik kuchi, rang va uning to‘qligi (to‘yinganligi) naturaviy nisbatlarga mos bo‘lsa, xar xil planlarni munosabati to‘g‘ri ilg‘ab olingan bo‘lsa shularni o‘zi etyud-qoralama uchun etarlidir. Yaxlit ko‘rishni bilish va katta shakl nisbatlarini topa olish ko‘nikmasi kelajakda manzara ishlash mahoratini egallash uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Davomli etyud ishlash jarayoni haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Manzara ob’ekti tanlab olingach tasvir yuzasida tayyorgarlik chizgilari ishlanadi. Chizmatasvir albatta shubhasiz perspektiv qurilish va turli ob’ektlarni planli va nisbatlarini saqlagan holda chiziladi.

Manzaraning chiziqli tasvirini to‘g‘riligi boshidanoq ishning sifatini belgilaydi. Mobodo ranglarning muvaffaqiyatsiz qo‘yilsada, chiziqli tasvir etyudning qimmatini saqlab turadi. Titsian o‘zining o‘quvchilariga takrorlar eidiki: -na soya-yorug‘lar, na ranglar emas, balki tasvirni to‘g‘ri chizilgan shakl va chiziqli tasvir go‘zal qiladi”.

Tajribasiz rassomlar ko‘pincha boshidanoq qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yadilar, osmonni barcha tavsiflari bilan chizib oladilar, so‘ng erning tasviriga o‘tadilar. Bunday qilish yaramaydi. Manzarada avvalo asosiy ob’ektlarning to‘qligi va rangining kuchini tasvirlash: osmon, er, suv va boshqa va so‘ngra bosqichma-bosqich etyudni tugallash xolatigacha olib borish zarur.

Buyoqlar bilan ishlashdash avval naturaga ko‘zni qisib qarab, naturaning eng yorug‘ va eng to‘q joylarini chamalab olish zarurdir. Aytaylik, eng yorug‘ – blik joy suvning chekka qirg‘og‘ida, eng to‘q joy esa-daraxtning shohlari deylik. Boshqa barcha to‘qliklarni shu ikki bosh nuqtaga nisbatan taqqoslaymiz. Bunday taqqoslashda darhol aniqlash mumkinki, xatto og‘ir qora bulutlar ham to‘qligi jihatidan albatta erdagi ob’ektlarga nisbatan engil ekanligini ko‘rish mumkin.

Umuman olganda, faqat chuqur fikrlab va predmet va planlarni to‘qligi va rangdagi farqlarni aniq tasavvur etib olib, so‘ng ishga kirishgan ma’qul.

Ish jarayonida manzaraning umumiy to‘qligi va rang holatini hisobga olish zarur. Kunning turli vaqtida va hat-xil ob-havoda yozilgan etyudlar umumiy tusi jihatdan turlicha bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, yaxshi anglab olishimiz kerakki, predmet va ob’ektlarni ochiq xavoda tasvirlashni asosiy o‘quv vazifalari turlicha yorug‘lik muhitida, umumiy yoritilganligi turlicha bo‘lgan, sutkaning turli vaqtiga, fasliga, ob-xavoning o‘zgarishiga bog‘liqdir.

Ayniqsa, asosiy yorug‘lik manbaiga nisbatan predmet va ob’ektlarning rangli ko‘rinishi kuchli ravishda o‘zgarib ketadi: ertalab, kunduzi, kechki payt. Masalan, daraxt soyasidagi natura bilan baland devor yonidagi soyadagi naturaning, o‘zining soyasining rangiga nisbatan bir xil bo‘lmagan rang gammasini tashkil qiladi. Bir xil vaqtda, barchasi yashil soyalanadi, ba’zida osmon ta’sirida ko‘kish bo‘lishi mumkin.

Oldingi daraxtlarning rangi nafaqat yorqinroq va issiqroq, shu bilan birga uzoqroqdagi daraxtlar tobora xiralashib, sovuq soyalar bo‘lib boradi va holanki, yashil-sariq o‘rmonzor gorizontda, ko‘k rangdagi chiziqqa aylanib boradi. Daraxtlarning bunday o‘zgarishi ma’lumki, ko‘kish rangga ega bo‘lgan havoning bizdan uzoqlashgan sayin quyuqlashib borishi evaziga ro‘y beradi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan havo perspektivasining bunday qonuniyatini har qanday manzarani tasvirlashda qo‘llanadi deb o‘ylashsh to‘g‘ri emas. Yorug‘lik xolatining ob-havoning shunday vaziyatini uchratish mumkinki, anchayin aniqroq va yorqin ranglar tusi va rangi bilan oldingi planda emas, balki o‘rta yoki xatto uzoq planlarda bo‘lishi mumkin.

Ijodiy manzalarda ba’zan rassomlikning o‘zi g‘oyaviy mazmunni qiziqarli ifodalash maqsadida tonal (tus) va rang gammasini yuqoridagidek, ancha faol xarakatdagi ranglar jilosi birinchi planda emas balki aytaylik o‘rta planlarda bo‘lish mumkin.

Naturada bir xil bir tekis rang bo‘lmaydi, qaysiki matoda bir xil rang bilan qoplab ham bo‘lmaydi. Har qaysi rang rangtasvirda o‘zining ko‘plab rangli jilolarini ko‘rsatadi. Osmon bir qarashda to‘liq to‘q rangda ko‘rinadi, lekin, osmonni gorizont bilan bo‘lgan qismini boshimiz ustidagi joy bilan taqqoslansa, darhol ranglarning bir xil emasligini payqaymiz. Quyoshning yorug‘ida rang anchayin yorqin-jiloli nur tushgan joyda. Ufqqa yaqinlashgan sari osmon rangi ochlashadi, issiqlashadi, gorizontni o‘zida kuchli tumanda ko‘rinadi. Agar yozda yaxshi maysazorga qaralsa, yashil rang turli-tuman tovlanishlarini ko‘rish mumkin. Maysalarni bir xil yashil bilan yozib bo‘lmaydi, xuddi osmonni ko‘k bo‘yoq bilan ishlab bo‘lmagani kabi. Biroq, shuni unutmasligik kerakki, manzaraning ranglari qanchalar rang-barang bo‘lmasin, yorug‘lik nuri, umumiy tus unga ta’sirini o‘tkazadi, barcha ob’ektlarda va barcha bo‘yoqlar unga bo‘ysundiriladi.

Naturadan har kuni etyudlar bajarib borish bilan albatta rassom katta yutuqlarga erishishi va har bir yaratilgan ijodiy asarlar insoniyatni ko‘nglidan chuqur joy egallab manaviy yuksalishiga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o‘g‘li International Conference on Research Identity, Value and Ethics Rangtasvirda manzara ishlashning amaliy ahamiyati

2. Komoldinov.S.J. Ijodiy manzaralar chizish bo‘yicha amaliy va nazariy tavsiyalar International Conference on Research Identity, Value and Ethics April 30th 2022 10-13 b.

3. Boltaboyev Azizbek Xasanboy o‘g‘li. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Economy and Innovation ISSN: 2545-0573 Volume: 43 | 2024

4. Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli. HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. https://doi.org/10.5281/zenodo.7607332

5. Azizbek Khasanboyo‘G‘li Boltaboev. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONALPEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS. "Экономика и социум" №3(106) 2023

6. Boltaboyev Azizbek Xasanboy O‘g‘li. O‘quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatnirish texnalogiyasi. Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-namdu ilmiy Axborotnomasi–2023-yil_7-son.

7. Taxirovich S. N. et al. BADIIY TASVIR VOSITALARIDA METONIMIYANING LINGVISTIK TAVSIFI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.

8. Toxirovich S. N. VISUAL ARTS TEACHING METHODOLOGY AND PROBLEMS AND SOLUTIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 569-571.

9. Taxirovich S. N. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA ETNOMADANIY KOMPYETYENSIYANI MILLIY-HUDUDIY MATYERIALLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH.

10. Takhirovich S. N. USE OF THE REGIONAL COMPONENT IN FINE ARTS CLASSES 5-7 // Archive of Conferences. – 2021. – C. 1-3.

11. Suyarov N. T., Erkaev E. T. IMPLEMENTATION OF NATIONAL-REGIONAL COMPONENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. – 2021.

12. Suyarov N., Ubaydullaev S. Use of national-regional component in art lessons // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 8. – C. 222-227.

13. Suyarov N. T. Implementation of the national-regional component in the educational process //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 511-514.